

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2026-1/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2026

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.d., dos.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№1/3 (134), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2026 y. – 140 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Abdullayev U. Amir Temur tashqi siyosati yangi geosiyosiy konfiguratsiyani shakllantirishi	5
Achilov A.T., Samadova G.N. Buxoro xonligi (Shayboniyilar davri)da qo‘shinning qurol-aslaha ta‘minoti	8
Akmalova N.B. Zaniriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari turkiy xalqlar etnografiyasini o‘rganishda munim tarixiy-etnografik manba	11
Ashirov U.T. 1950–1970-yillarda Qashqadaryo viloyatida maktab-internatlar tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayoni	13
Boymurodov Sh.T. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy o‘rta maxsus ta‘lim tizimi	16
Matchanova S.M. Xorazm vohasi aholisining o‘ziga xos etnografik xususiyatlarini identifikatsiyalash masalalari	19
Matyakubova S.O‘. “Ichan-qal‘a” muzey fondidagi qo‘lyozmalarning etnografik tahlili va ularning madaniy merosni o‘rganishdagi o‘rni	23
Namazova U.N. Ilk o‘rta asrda Sug‘ddagi nikoh munosabatlarining tarixiy asoslari	26
Norov J.K. Kesh viloyatining ilk o‘rta asrda tarixiy-geografik o‘rni va toponimik xususiyatlari	29
Nosirova A.R. Diniy ksenofobiya va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari	32
Ochilova K.I. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida kino va teatr sohasining rivojlanishi	34
Ro‘ziyeva M.A. Lo‘lilar moddiy madaniyatida o‘ziga xoslik va o‘zgarishlar	37
Sattorova D.Sh. Islomgacha va islom davri madaniy merosi	40
Tajetdinova B.N. Qoraqalpoqlarda janoza marosimida beriladigan ayrim hadiyalar	43
To‘ychiboyev B.B. Markaziy Osiyo yilqinligi tarixidan	46
Tursunova G.B. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati va yer munosabatlarining transformatsiyasi	54
Vasiyeva D.I. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta‘lim tizimidagi islohotlar va ayrim muammolar xususida	57
Xudaybergenov H.S. Xorazm aholisining gilamdo‘zlik, mato to‘qish an‘analari – xorijiy tadqiqotchilar nazarida	60
Бўриев И.С. Абу Райхон Берунийнинг тиббиётга доир қарашлари	63
Зарипов Ж.Г. История графия принужденной промышленной миграции в Узбекистане в 1960-1970 гг	65
Муртазова С.Б., Аширова Қ.А. Мустақиллик йилларида Қашқадарё радиоканали фаолияти тарихидан	69
Наврузов С. Савдогар Глуховскийнинг Янги Урганч Красноводск карвони	71
Назаров О.М. Усиление хлопковой монополии в Сурхандарьинской области и его социально-экономические последствия	76
Нардаев А. Куйи ва Юкори Қашқадарё воҳаси аҳолисининг ўзига хос хусусиятлари	79
PEDAGOGIKA FANLARI	
Axmedova G.U. Xorijiy va ona tillarini (nemis, ingliz va o‘zbek) o‘qitishning integrativ modeli va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	82
Diyarova A.A. Inklyuziv ta‘lim sharoitida differensial va individual yondashuv	84
Farmonov S.M., Hazratqulova O.A. Pedagogical framework for teaching english collocations through corpora	87
Holikova L.F. Ilmiy va ijtimoiy loyihalar olib borishga o‘rgatish metodologik yondashuvlari va amaliyoti	90
Ikhsanova D.R. The impact of digital game - based learning on efl communicative competence	92
Karimova Sh.V. Communicative competence as a core goal of language education	95
Kavulyazov V.M. Maktabda turizm mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik tamoyillari	98
Kodirova A.F. Bo‘lajak birinchi sinf o‘quvchilarining nutqqa tayyoriigini rivojlantirish: zamonaviy psixologik va pedagogik yondashuvlar	101
Nazarov J.X. Pedagogik tajriba-sinov sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni	103

Nazarov J.X. Pedagogik tajriba-sinov ishi natijalari tahlili	106
Omonullayeva S.I. Talabalarni grammatik kompetensiyani rivojlantirish: integrativ yondashuv asoslari	109
Quroqova M.D. Socio-psychological and sociocultural factors including, identity, motivation, and investment roles in students' language acquisition: Case study of two students	113
Shodmonov O'R. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlari samaradorligini oshirishda ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining tutgan o'rni	115
Shukurova M.A. Unlocking language learning potential through personality variables	119
Urunova Z.N., Abdusamadova M.A. A modern approach to developing cognitive-speech knowledge and skills in students with hearing impairments	122
Xaitova B.U., Yuldoshev J.D. Bolalar va o'smirlar sport maktablarida gandol to'garaklariga qabul qilish jarayonining hozirgi holati	124
Yuldasheva D.B. Problems in foreign language teaching and their solutions	127
Yusupova Sh. Tilni o'qitishga konseptual yondashuv	130
Кодирова З.А., Атавуллаева С.Ж. Применение кейсовых технологий для развития навыков говорения: теоретико-методологический анализ	133
Тўланов М.Қ. Оилавий муносабатларнинг валеологик асослари	136

TARIX FANLARI

UO'K 94(575.1).02+327+911.37+355

AMIR TEMUR TASHQI SIYOSATI YANGI GEOSIYOSIY KONFIGURATSIYANI SHAKLLANTIRISHI*U. Abdullayev, t.f.n., dots., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent*

Annotatsiya. Maqolada Amir Temurning tashqi siyosati natijasida Kichik Osiyoda yuzaga kelgan yangi geosiyosiy konfiguratsiya tahlil etiladi. Unda Yildirim Boyazidning agressiv kengayish siyosati, uning Arzinjon, Sivas va Firotgacha bo'lgan yurishlari mintaqadagi siyosiy muvozanatni izdan chiqargani ko'rsatib beriladi. Temur va Boyazid o'rtasidagi diplomatik ziddiyatlarning kuchayishi, Boyazidning g'arbiy muvaffaqiyatlar fonida sharqiy siyosiy vaziyatni yetarlicha baholay olmaganini ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar. Ibn Arabshoh, Yildirim Boyazid, islom dunyosi, Sulton Faraj, Mamluklar sultonligi, Arzinjon va Firof

Аннотация. В статье анализируется новая геополитическая конфигурация, возникшая в Малом Азии в результате внешней политики Амира Темура. Особое внимание уделяется экспансионистской политике Йылдырым Баязида, который расширил границы Османского государства до Арзинджана, Сиваса и Евфрата, что нарушило региональный политический баланс. Рассматривается усиление дипломатических противоречий между Темуром и Баязидом, вызванное тем, что Баязид, добившись успехов на Западе, недооценил ситуацию на Востоке.

Ключевые слова: Ибн Арабшах, Йылдырым Баязид, исламский мир, султан Фарадж, султанат мамлюков, Эрзинджан и Евфрат.

Abstract. The article analyzes the new geopolitical configuration that emerged in Asia Minor as a result of Amir Temur's foreign policy. Particular attention is given to Yildirim Bayezid's expansionist strategy, which extended the Ottoman borders to Erzincan, Sivas, and the Euphrates, disrupting the regional balance of power. The study highlights the growing diplomatic tensions between Temur and Bayezid, noting that Bayezid, encouraged by his western successes, failed to properly assess the political situation in the East.

Keywords: Ibn Arabshah, Yildirim Bayezid, Islamic world, Sultan Faraj, Mamluk Sultanate, Erzincan, Euphrates.

Kirish qismi: XIV asrda Kichik Osiyoda siyosiy vaziyat butunlay o'zgarib, Yildirim Boyazid Oydin, Menteshe, Garmiyan, Qaramon, Jondor o'g'illari bekliklarini o'ziga bo'ysundirgan. Qozi Burhoniddinning o'limidan keyin esa uning yerlarini ham bosib olib, Malatiyagacha kelgan edi. Usmonli turk imperiyasining me'mori sifatida tarix sahnasiga chiqqan Boyazid G'arbda – Bolqonda ham muvaffaqiyatli harbiy harakatlar olib borgani ma'lum. U mamluklar sultoni Barquq o'limidan (1399) so'ng sultoniikning Kichik Osiyo ichidagi joylarini ham siyosiy sarhadlariga qo'shib olib, o'z davlati chegaralarini Arzinjon va Firofga qadar kengaytirgan edi. Amir Temur siyosiy jihatdan ilk bor o'ziga teng raqibga duch keladi. Usmonii davlatiga majburan bo'ysundirilgan hududlarda hali turklarning mavqei mustahkam emasdi. Sobiq hukmdorlar Boyazidga nomigagina bo'ysunib, uning siyosiy tuzumini tan olmaslik yo'lini tutgan va Sharqdagi qudratli homiy vositasida avvalgi mavqelarini tiklashdan umidvor edilar. Ular Amir Temurning yurishlariga pinxona madad berishdan manfaatdor edilar. Yildirim Boyazid Usmonii taxtiga o'tirgan 1389-yildan e'tiboran g'arb masalalariga o'ta sezgirlik bilan qaray boshlagandi. Ammo sharqdagi siyosiy almashuv va o'zgarishlarga kelganda ana shu hushyorlikni yo'qotgandi. Uning 1396-yilda salibchilar bilan bo'lgan jangdagi porloq g'alabasi Sulton Yildirim Boyazidning Islom dunyosidagi ta'sir va shuhratini eng yuksak nuqtaga chiqargan edi. Ammo u Amir Temur saltanatining rivojlanishini xuddi bir tomoshabin kabi kuzatishdan nariga o'ta olmadi. Umumiy tarixlarda hamda diplomatik yozishmalar to'plangan bir qator majmualardan joy olgan hujjat nusxalarida 1399-yilgacha ikki taraf orasida

kuchli ziddiyatlar bo'lmaganligini ko'ramiz. Ammo shunga qaramay, taraflar orasida sovuq urush havosi hukm surar edi.

Mana shu umumiy vaziyat ichida 1399-yilgacha Sharq masalasiga loqayd qaragan Yildirim Boyazidning Amir Temur Kichik Osiyoga juda yaqin joyda turgan chog'ida Arzinjon amiri Mutahhartan yerlariga bostirib kirishi, o'ta qaltis harakat bo'lgan edi. Ustiga-ustak, bu harakat Amir Temurga o'z rejalarini amalga oshirish uchun bir bahona bo'ldi. Zero, Sohibqiron bunday harakatni o'z hukmronligiga qarshi qaratilgan tajovuz sifatida baholaydi. Maktublarda bu haqda batafsil yozilgan.

Asosiy qism: Yildirim Boyazidning Amir Temurga sadoqat bilan xizmat etgan Arzinjon amiri Mutahhartanga, Sohibqiron Bingul (Ming ko'l) yaylovida bo'lgan chog'ida elchi yuborishi aqlga sig'adigan tadbir emasdi. Har holda Amir Temur vujudga kelgan qulay imkoniyatdan mohirona foydalanadi. Boyazid bilan munosabatda Amir Temur o'zining yorqin harbiy va diplomatik salohiyatini namoyish etdi. "Amir Temurning strategiyasi eng avvalo o'z qo'shinining yuksak harakatchanligiga va qarorlarining o'ta maxfiyligiga asoslanganiigi tufayli g'animlarini doimo dog'da qodirardi", - deb yozadi L. Keren bu haqda. Boyazidga qarshi harakat boshlashdan oldin uning barcha ittifoqchilarini birma-bir bartaraf etish lozim edi. To'xtamish mag'lub etilgan, ammo Misr mamluklari hamon mintaqada kuchli hukmdor hisoblanar va Sohibqironning ashaddiy raqiblari bo'lgan Qora Yusuf turkman va Ahmad jaloyirni qo'llab-quvvatlab, unga qarshi har doim gij-gijlab turar edi. Bu kuchlar birlashib, orqadan zarba berishini nazarda tutgan Amir Temur dastlab sulton Boyazid bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi. Unga yozgan maktublarida u g'ayridiniar bilan jangni davom ettirishi lozimligini ta'kidlaydi, o'ziga tobe hukmdorlarni bezovta qilmaslikka chorlab, sulton huzurida boshpana topgan ashaddiy raqiblarini qaytarishni talab etadi.

Ayni zamonda Sohibqiron turk sultoni bilan hamkorlikda va do'stona munosabatlarda bo'lishni astoydil xohlagani ham ma'lum. Maktublar mazmuniga va a'yoniariga aytgan so'zlariga qaraganda, u haqiqiy ahvoldan ancha bexabar edi. Ibn Arabshoh bu xususda juda ibratli misol keltiradi: "Boyazid Temur maktubidan voqif bo'lib, uning xitobli mazmunini anglagach, u o'rnidan sapchib turib ketdi: uning g'azabi qaynab, kuyib-yondi. Go'yo nasha ivitmasi ichgan kishidek goh tovushini ko'tarib, goh pasaytirib (shunday) dedi: - Bu uydirmalar bilan meni qo'rqitmoqchimi? Yoki bu yolg'on-yashiqqlar bilan menga nisbatan fitna chiqarmoqchimi? Yoki bo'lmasa, meni Ajam podshohlari misoli hisobladimi? Yoki gapini anglab bo'lmaydigan Dasht totorlari kabi sanadimi? Yoki qo'shin yig'ishda hindlar lashkarlari kabi ko'rdimi? Yoki mening askarlarimni tarqoqlikda Iroq to'dalari kabi deb hisobladimi? Yoki mendagi islom (yo'lidagi) g'azotchilarini Shom askarlariga o'xshatdimi? Yoki o'zining qurigan to'dasini mening askarlarimdek bildimi? Yoki uning haqidagi (barcha) xabarlarini menga ma'lum (ekani)gini bilmaydimi?..."

Boyazid ortiqcha takabburlikka berilib, haqoratimiz so'zlarni bemalol ishlatayotgani diqqatga sazovor. Ammo u Amir Temur qanchadan-qancha janglarda g'olib chiqqanligini bilsa-da, ulardan zarur xulosa va saboqlar chiqara olmagani, hatto puxta razvedka tizimiga ega emasligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham Ibn Arabshoh uni: "Ibn Usmon (Boyazid) shoshqaloq va shijoatli kishi bo'lib, odil podshohlardan bo'lishiga qaramasdan, unda zarracha ham sabr-toqat yo'q edi", - deb ta'riflaydi. Ayni zamonda, arab muarrix Amir Temurning og'ir va vazmin, bosiq tabiatini ham qayd etadi: "Qachonki, Temur uning iztirobli javobidan voqif bo'lgach, "Ibn Usmon majnun va ahmoq", - dedi. Voqealar jarayoni Amir Temur turk sultoni tabiatiga to'g'ri baho berganini isbotlab berdi.

Natijalar qismi: Amir Temur dastlab Dulqodirli turkmaniarini jazolaydi. U harbiy harakatlarni boshlamasdan oldin, Sivasni qamal qilish va bosib olishda hamkorlik qilgan Usmoniyar davlatining ashaddiy dushmani, o'z qadrdoni Mutahhartanga vataniga qaytishga izn berib, yangi hududlarni boshqarish va qo'riqlash vazifasini unga topshiradi. Oqquyunii Qora Yuluq Usmon esa Amir Temurning yonida qolib, janub harakatida ishtirok etadi. Sivas qamali bilan bir paytda Dulqodirli turkmaniar ustiga Shohrux qo'shiniari yuboriladi. U tajribali qo'mondoniar – amir Sulaymon, Shoh Bahodirlar bilan birgalikda harakat qiladi. Ularning Elbistonga yaqiniashayotganini eshitgan Dulqodirli turkmanlar shaharni tashlab qochib ketishadi. Tarqalgan turkmanlarni ta'qib qilgan Shohrux kuchlari og'ir qarshilikka uchramaydi va vaqtdan yutib, Amir Temur kuchlariga borib

qo'shiladi. Sulton Barquq vafotidan keyin Malatiya Yildirim Boyazid tomonidan Usmonli sultonligiga qo'shib olingan edi. Shaharda sivaslik Mustafoning o'g'li hukmronlik qilardi.

Amir Temurning choparini usmonlilar ushlab qolganligi uchun qo'shinga shaharga yurish buyuriladi. Dastlab shahar hokimi qarshilik ko'rsatishga urinadi, ammo asosiy kuchlar shaharga kirayotganidan xabardor bo'lgach, qarorini o'zgartirib, Usmonii askarlari bilan birga Malatiyadan uzoqlashadi. Shunday qilib, Amir Temur bu shaharni osonlikcha ishg'ol qiladi.

Bu yerlarni boshqarish Avnik jangidan beri yonida yurgan, Sivasni ishg'ol qilishga ishtirok etgan Qora Yuluq Usmonga berildi. Suriya bilan Kichik Osiyo orasidagi chegara hisoblangan mazkur hudud Amir Temur hokimiyati ostiga o'tgandan keyin Suriyani bosib olishga xalaqit beradigan hech qanday to'siq qolmagan edi.

Sohibqironning Mamluklar sultoniga qarashli yerlarga bostirib kirishi uchun yetarlicha asoslar bor edi. 1394 yilda Sohibqiron Arab Iroqini olgandan keyin Bag'dod hokimi Ahmad jaloyirga boshpana bergan sulton Barquqqa Shayx Sova boshchiligida elchilik hay'ati jo'natilgani yuqorida aytili. Amir Temur elchilar bilan yuborgan maktubida "Hozir qilish kerak bo'lgan ishni qildik, bizga qo'shni davlatlar ahil va do'st bo'lib yashasin. Ikki davlatning elchilari, savdogarlari kelib-ketib, bir-biri bilan tijorat qilsiniar. Bu xalqlarimizning tinchligiga va farovoniigiga sabab bo'lsin" deb taklif qiladi. Lekin elchilik hay'ati yo'lda ushlanib, bir necha kishi xiyonatkorklarcha o'ldiriladi.

Amir Temur Otlamishni qaytarib berishni talab qilib sultonga maktublar yuboradi, ammo Barquq bu adolatli talabni bajarmaydi. Ikki tomon uchun jiddiy muammoga aylangan yana bir nizo Ahmad jaloyirni qaytarib berishga bog'liq masaladir. 1394-yili Amir Temur Bag'dodni bosib olgandan keyin Ahmad jaloyir Misrga qochib borgan va yaxshi kutib olingan edi. Sohibqironning yuqoridagi ikki talabiga Barquq har doim rad javobi berib keldi. Sivas olingandan keyin yangi sulton Farajga yozilgan maktubda yana bir marta Ahmad jaloyirni topshirish talabi bayon qilinadi.

Sulton Farajga jo'natilgan mazkur maktubda Amir Temur o'rtadagi ziddiyatlarga barham berish, Otlamishni ozod qilishni so'raydi va Ahmad jaloyir bilan Qora Yusufni tutib, Amir Temurga yuborilgan taqdirda Suriyaga yurish qilmasligini bildiradi. Bu dalil ham Amir Temurning mohir siyosatchi, usta diplomat ekanini ko'rsatadi. U eski voqealarni unutish va tinchlik, do'stona aloqalar o'rnatishga ochiq da'vat etar ekan, behuda urushlar va ortiqcha qon to'kilishini xohlamasligini, adolatli hukmdor ekanligini yana namoyish etadi. Ammo bu paytda sulton Faraj Yildirim Boyazid bilan yashirincha muzokaralar olib borayotgan edi. Yuqoridagi maktub ancha yumshoq tarzda yozilgan.

Xulosa qilib aytganda, XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda yuz bergan siyosiy jarayonlar Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'ldi. U Boyazidga qarshi kurashni shoshilinch harakatlar bilan emas, balki puxta razvedka, diplomatik maktublar, va ittifoqchilarni izolyatsiya qilish orqali olib bordi. Sohibqiron harbiy yurishlarida aniq strategik rejalariga amal qilar, janglarda ma'naviy birlik, kuchli boshqaruv, intizom va harakatchanlikni asosiy omil sifatida qo'llardi. Shu bois, uning har bir qarori chuqur siyosiy ma'no kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху Тимура. – Москва: Наука, 1963. – 312 с.
2. Ибн Арабшох. Амир Темур тарихи (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни филология фанлари номзоди У.Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. I-китоб. Тошкент, "Меҳнат" 1992. –328 б.
3. Imber C. The Ottoman Empire, 1300–1650. – New York: Palgrave Macmillan, 2002. – 304 p.
4. Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 228 p.
5. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан Ю.Ҳакимжонов таржимаси. Нашрга тайёрловчи А.Ўринбоев. Тошкент, "Ўзбекистон" 1996. – Б.68-80.
6. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) / пер. со староисп., предисл. и коммент. И.С.Мироковой. М., "Наука" 1990. – С.79.